

Dars davomida sanchuvchi va kesuvchi asboblarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi nazorat qilinadi.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

Bajarilgan ishlar muhokama qilinadi. O'quvchilar sinfdoshlarining ishlarini qarsaklar bilan baholaydilar: qarsak qanchalik baland bo'lsa, ishga berilgan baho shunchalik yuqori hisoblanadi.

Ishni tugatishga ulgurmagan o'quvchilar uni uyda yakunlaydilar.

Quyidagi jummalarni davom ettirish tavsiya etiladi:

Endi men ... ni bajara olaman.

Menga ... qiyinchilik tug'dirdi.

Endi men ... ni bilib oldim.

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarni ko'zlangan natijaga erishish uchun o'z faoliyatlarini mustaqil rejalashtirish va amalga oshirishga o'rgatish.
- kuz mavzusidagi ishlarni bajarishda ijodiy tasavvurlarini namoyon etishga undash.

3-DARS. HOSIL YIG'ISH

Dars maqsadlari:

- o'quvchilarda insonlar foydalanadigan materiallar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish;
- o'quvchilarda qo'l ostidagi materiallardan foydalanib, buyumlar yasash imkoniyatlari haqidagi tushunchalarni kengaytirish;
- paxta diskari yordamida applikasiya yaratish ko'nikmasini rivojlantirish;
- ijodiy qobiliyatlarni o'stirish.

Kerakli materiallar: Rangli qog'oz, qaychi, yelim, qalamlar, bo'yoqlar, mo'yqalam, suv uchun stakancha, darslik, paxta diskari, buyum namunasi.

1. Tashkiliy qism (2-3 daqiqa).

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashadi. Davomat va darsga tayyorgarlikni tekshiradi.

2. Dars mavzusini e'lon qilish. Dars mavzusiga kirish (2-3 daqiqa).

O'qituvchi bugungi darsda o'quvchilar paxta diskrlaridan applikatsiya tayyorlashlarini ma'lum qiladi.

Paxta diskrlari gigiyena vositasi hisoblanadi. Ular presslangan paxtadan tayyorlanadi. Ko'pincha yumaloq shaklda ishlab chiqarilsada, to'rtburchak shaklida ham uchraydi.

Paxta diskrlari quyidagi maqsadlarda ishlatiladi:

- tegishli suyuqlik yordamida tirnoq yuzasidagi bo'yoqlarni olib tashlash;
- terini parvarishlash;
- terini dezinfeksiyalovchi vositalar bilan ishlov berish;
- kichik jarohatlar va boshqa mayda shikastlanishlarni tozalash.

3. Namuna tahlili (5 daqiqa).

Darsning bu qismi odatdagi tuzilish bo'yicha o'tkaziladi. Darslikda yordam sifatida o'quvchilar ish rejasini tuzishlari va amaliy qismni bajarishlari uchun video yo'riqnoma berilgan.

4. Amaliy qism (25 daqiqa).

Ish mustaqil ravishda bajariladi. Zarur bo'lganda, o'qituvchi yordam beradi. Avvalo, o'quvchilarga paxta diskrlaridan meva shakllarini yasash va ularni bo'yoqlar bilan bo'yash tavsiya etiladi. So'ngra rangli qog'ozdan "Savatcha" applikatsiyasini tayyorlab, darslikning 10-11-betlarida ko'rsatilganidek, meva shakllarini unga yopishtirishlari kerak.

5. Yakunlash va o'z-o'zini tahlil qilish (5 daqiqa).

O'qituvchi keyingi dars uchun kuzgi barglarni tayyorlab kelish lozimligini aytadi.

O'qituvchi quyidagi savollarni beradi:

1. Kuzgi barglarni qayerdan to'plash mumkin? (*Bog'dagi yoki uy atrofidagi daraxtlar ostidan*).

2. Tabiiy materiallarni yig'ishning qanday qoidalarini bilasiz? (*Tabiiy materiallarni faqat yerdan to'plash mumkin, daraxt shoxlarini sindirish mumkin emas. Daraxtlarga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak*).

Kutilayotgan natijalar:

- o'quvchilarga paxta diskrlari bilan ishlashni o'rgatish;
- o'quvchilarga buyumlarni bezash va bo'yashni o'rgatish.